

## ABDULLA SHER SHE’RLARIDA JANRIY RANG-BARANGLIK

*Xamroyeva Dilnoza*

*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

[d.j.xamroyeva@buxdu.uz](mailto:d.j.xamroyeva@buxdu.uz)

**Annotatsiya:** Abdulla Sher iste’dodli shoir sifatida rang-barang janrlarda she’rlar yaratdi. Mumtoz she’riyat janrlari bilan birga dunyo she’riyatidan o‘zbek she’riyatiga XX asrda o‘zlashgan elegiya, oktava, xokku kabi janrlarga murojaat qildi va ushbu janrlarning ajoyib namunalarini yarata oldi. Maqolada shu haqda fikr boradi.

**Kalit so‘zlar:** she’riyat, janr, hayku, elegiya, oktava, uchlik, rus she’riyati, yapon she’riyati, misra, band, qofiya.

Abdulla Sher she’riyati janr jihatidan rang-baranglikka ega. Shoir fard, ruboiy, tuyuq, qit’a, muxammas, g‘azal, hayku singari Sharq; sonet, elegiya, oktava kabi G‘arb lirik lirikasi janrlariga murojaat qiladi. Uning she’riyatida doston, she’riy qissa, ballada kabi liro-epik janrlar ham uchraydi. Bu shoirning dunyo adabiyoti yutuqlarini, Sharq she’riyati janrlarini atroflicha o‘rganganidan darak beradi. Rus she’riyatidan xabardor shoir elegiyalar ham yaratdi.

Elegiya aslida g‘amgin kayfiyatda yozilgan lirik asar hisoblanib, dastlab yunon adabiyotida paydo bo‘lgan. Elegiyada shoirning tushkun kayfiyati, hasratli kechinmalari ifodasi sezilib turadi. Bu janr rus she’riyatiga XVIII asrda, o‘zbek nazmiga esa XX asrning boshlarida kirib kela boshlagan. Bu davrda o‘zbek adabiyotida “elegiya” atamasi qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, Hamza, Cho‘lpon kabi shoirlarning asarlarida elegiyaga xos ba’zi xususiyatlarni kuzatish mumkin edi.

Muayyan noxush hodisa tufayli yozilgan, kishilar qalbida tug‘ilgan qayg‘u va alamni ifodalovchi lirik she’r G‘arb adabiyotida elegiya, deb ataladi. Qadimda elegiya, ko‘pincha, biror yaqin kishining vafoti munosabati bilan yozilgan motam qo‘shiqlari shaklida yuzaga kelgan. Keyinchalik u, umuman, inson qalbidagi azobli, hazin tuyg‘ularni ifodalovchi she’r namunasiga aylangan[5.282]. Elegiya – hozirgi ma’nosida ko‘proq falsafiy mazmundagi, qayg‘uli o‘ylarni ifodalovchi she’r; mazmun jihatdan tasniflanuvchi lirik janr[4.358]. Abdulla Sher qalamiga mansub elegiyalarda ham xuddi shu tuyg‘ular qalamga olingan, qayg‘uni falsafiy tarzda ifodalash shoir elegiyalariga xos:

Shamol uvlar. Men qirg‘oqda. Daryo. Kecha.

Vasling tilab men boraman daryo kecha[2.22].

She’rning dastlabki misrasiyoq sodda yig‘iq gaplardan iboratligi bilan e’tiborni tortadi. Shoir “kecha” so‘zlari orqali so‘z o‘yini qiladi. Misoldagi ilk misrada “kecha” payt ravishi bo‘lsa, keyingi satrda ravishdoshdir, so‘zlar shakldoshlik qilgan. Shoir

voqeani kitobxonga tushuntirishga harakat qilmaydi, balki tasvirning aniqligi va ixchamligi kishini shu manzara holatiga tushirib qo‘yadi. Bir qarashda, bu she‘rning mahzunli, ya‘ni elegiyaga xos xususiyatlari yo‘q deyish mumkin. Ammo she‘rning xulosasida ayriliq ifodasi bor va shoir xuddi shu kunni xotirada saqlab qolganini aytadi:

...Va men sho‘rlik xotiramda yoqib gulxan,  
O‘sha yoniq ishq taftida isinaman.

Ko‘rinadiki, she‘r xulosasida sevgilisidan ayrilgan oshiqning o‘ylari, hasratlari qalamga olingan. Ushbu turkumdagi she‘rlarda huzunlik kayfiyati bilan bir qatorda hayotga umid bog‘lash kabi holatlarni ham uchratish mumkin. Buni quyidagi elegiyada ham ko‘rishish mumkin.

Umidvor kunlarning sabr kosasi,  
Qo‘y, ilinj sharobin tutmagin endi.  
Vafosiz yillarning ishq xulosasi  
Bir faryod bo‘ldi-yu, jimgina tindi.  
...Achinmay notanti, qora tunlarga,  
Yurakni asrayman yorug‘ kunlarga[2.23]!..

“Sabr kosasi”, “ilinj sharobi” birikmalari she‘rdagi badiiylikni ta‘minlar ekan, shoir kayfiyatini ham, o‘yini ham ifodalay olgan. Lirik qahramon o‘z-o‘ziga tasalli beradi. Qora, notanti tunlarga e‘tibor bermay, o‘zini yorug‘ kunlar uchun asrashini ta‘kidlaydi. Shunday kunlar kelishiga ishonadi. Har qanday kun o‘tishiga ishonch she‘rdagi hayotiy falsafani yuzaga keltirgan.

Iste‘dodli ijodkornning “Qadimgi kuy” kitobidan “Oktavalar” joy egallagan. Bu so‘z lotincha bo‘lib, “octo” – “sakkiz”; “oktavus” – “sakkizinchi” ma‘nosini beradi. Oktava – sakkiz qatorli she‘riy band shakli. Ular rim raqamlari bilan alohida raqamlab chiqilgan bo‘lsa-da, bir o‘qishda yaxlit she‘rni esga soladi. Oktava shoir tomonidan o‘n to‘qqizta qismga ajratib chiqilgan. Oktava ilhom parisiga bag‘ishlangan. Shoir fikrlarini erkin bayon etadi, ba‘zi o‘rinlarda minbar, mansab talashadigan soxta shoirlarni tanqid ostiga oladi.

Men – alvon ufqqa oshufta shoir, –  
Bir tongda ko‘z ochib vaslingni so‘rdim.  
Ishqingda bo‘ldim-u, Sa‘diydek shoir,  
Lahcha cho‘g‘ jahonga o‘zimni urdim.  
Uquvim bir sinchil dehqonga doir:  
Mangu paykallarda boshhoqlar ko‘rdim,  
Sadog‘-u shamshirdan men rozidirman,  
Parivash g‘oyalar sarbozidirman[1.23].

She‘rda ijtimoiy fikr badiiylik ortiga mahorat bilan berkitilgan. Shoir jahonni lahcha cho‘g‘ga qiyos qiladi. She‘rdagi “sadog‘, shamshir, sarboz, parivash g‘oya”

so‘z va so‘z birikmalari fikrimizni dalillaydi. Shoirning kursdoshlariga bag‘ishlangan 5 bo‘limdan iborat oktavasi ham bor. She’rda go‘zal yoshlik, talabalik yillari quvonch bilan eslanadi.

Oktava – sakkiz misradan tarkib topuvchi, besh yoki olti stopali yamb o‘lchovidagi misralari abababcc tartibida qofiyalanuvchi band shakli [4.208].

Oktavalarda avvalgi oltita misraning o‘zaro qofiyalanishi va oxirgi ikkita misraning alohida qofiyalanishi katta qulaylik yaratadi. Ya’ni so‘nggi ikki misrada xulosa qilish ijodkorga qo‘l keladi. Abdulla Sher oktavalarida ham xuddi shu holatni uchratamiz. Shoirning kursdoshlariga atalgan ushbu oktavasi 5 bo‘limga ajratib chiqilgan bo‘lsa-da, yaxlit umumiy ma’no anglashiladi:

Bugun olislarda kuylar xotira	a
Sato navosidek vazmin va xolis.	b
Tinglangiz, do‘stlarim, qanday bokira,	a
Naqadar ezgu kuy! U garchi olis	b
Va lekin yo‘qlikka bo‘y bermas sira;	a
U o‘jar ruh kabi ulug‘vor bir his.	b
Matlablar sha’niga taronadir u,	c
Umriy orzuimizga parvonadir u[1.47]!	c

Abdulla Sher hayku janrida ham qalam tebratdi. Ushbu janr XVII asrda yapon shoiri M.Basyo tomonidan Sharq she’riyatiga kirib kelgan. Xokku, ya’ni xayku (yaponcha “ilk misralar”) – yapon she’riyatidagi an’anaviy qat’iy she’riy shakl, lirik janr. Xokku uch misradan tashkil topib, birinchi va uchinchi misrasi besh, ikkinchi misrasi esa yetti bo‘g‘inli o‘lchovda bo‘ladi va bu jihatdan u tankaning dastlabki uch misrasi bilan bir xil bo‘lib, she’rning asosiy fikri aks etgan “ilk misralar” xokku nomli qat’iy she’r shakli sifatida qaror topgan [4.350].

Bu janr o‘zing qisqaligi va go‘zalligi bilan ajralib turadi. Hayku tabiat va undagi hodisalar orqali inson ruhiyatini anglatishga harakat qiladi. Uni uch qatordan tashkil topgan, qofiyasiz she’r deya olamiz. Ammo janrning o‘ziga xosligi ham shunda: uch qatorda yuksak ma’no anglatishdadir. Adabiyotimizda Rauf Parfi, Xurshid Davron, Jabbor Eshonqul, Xoldor Vulqon kabilar xokkularni o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Abdulla Sherning xokkularida yuqoridagi fikrlarning yuzaga chiqishini kuzatish mumkin. Shoir o‘tgan asrning 90-yillarida xokkular ijod qila boshladi. U bu janrni haykular tarzida nomlab, raqamlab, alohida qismlarga ajratadi. Jami 48 ta bo‘lakka ajratib, arab raqamlari bilan raqamlaydi.

1

Atirgul o‘libdi, –	6
Xayolimga urildi	7
Marhuma hidlar	5

2

Sayyohman sendek, 5  
Faqat yo‘lim og‘ir-u, 7  
Hamyonim yengil [2.253]. 5

Shoir haykularida ba‘zan qofiyada noqisliklar uchrashi mumkin, ammo u she‘rning mazmuniga ta‘sir qilmaydi. O‘zbek adabiyotida haykuni eslatadigan she‘rlar ham bo‘lib, uni Anvar Obidjon, Farida Afro‘zning “uchchanoqlar”, “uchpaxsalar”, “tasbihlar” nomi ostida yaratgan she‘rlarida ko‘rishimiz mumkin. Bu haqda olim L.Sharipova “Uchlik” maqolasida alohida to‘xtalib o‘tgan[6.183].

Umr shunday bir taom –  
Mazalimi, sho‘rmi, xom,  
Yeyishimiz shart borin [3.54].

Abdulla Sher epigrammalar ham yaratdi. Kichik hajviy she‘rga nisbatan “epigramma” atamasi qo‘llaniladi. Qadimda Yunoniston ibodatxona va haykallariga o‘yib yozilgan kichik she‘riy parchalar epigrammalar deb nomlangan. Keyinchalik bu janr ancha takomillashgan. O‘zbek adabiyotida Hamza va G‘afur G‘ulom ijodida bu janrning namunalarini uchratishimiz mumkin. Abdulla Shening ushbu janrdagi she‘rlarida ham xuddi shu kayfiyat mavjud:

Sarg‘aygan bodringlar qovunman deydi,  
Bukilgan mis chaqa noxunman deydi.  
Sho‘ro hammomidan qolgan olqindi  
Yangi hammomda ham sovunman deydi [2.479].

She‘r yumoristik ruhda yozilgan. Inson o‘zidagi kamchiliklarni ko‘rolmasligi, o‘ziga juda yuksak baho berib yuborishi va jamiyat kishilari orasida kulgiga qolishi mumkinligi hajviy tarzda berilgan.

Abdulla Sher biror janrda qalam tebratdimi, o‘sha janrning go‘zal namunalarini maromiga yetkazib kuylaydi. Shoir she‘riyatida mumtoz she‘riyatimiz janrlaridan tashqari o‘zga ellar lirikasidan o‘zlashgan janrlar ham uchraydi. Xulosa shuki, Abdulla Sher elegiya, oktava, hayku singari janrlarda ijod qilar ekan, bu janrlarning talabiga jiddiy e‘tibor qaratdi. Ushbu janrlar ko‘magida o‘z dardlarini, tuyg‘ularini, fikr-o‘ylarini ifoda eta oldi. She‘riyatimizning janriy rang-barangligiga munosib hissa qo‘sha oldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдулла Шер. Қадимги куй. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1987. – Б.157.
2. Абдулла Шер. Танланган асарлар. – Т.: “ШАРҚ” НМАК, 2021. – Б.679.
3. Anvar Obidjon. Bezgakshamol. – 2. – Т.: “ШАРҚ” НМАК, 2003. – В.131.
4. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б.397.

5. Худойбердиев Эркин. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: “ШАРҚ” НМАК, 2008. Б.365.
6. Sharipova L. XX asrning 70–80-yillari o ‘zbek she’riyatida folklorizm // Toshkent: Fan. – 2011. – Т. 153.
7. Sharipova L. Tahlil va talqin. – Buxoro: “Sadridin Salim Buxoriy” Durдона. –248 b.
8. Шарипова Л. БОҚИЙ МАВЗУДА БИТИЛГАН ШЕЪРЛАР // Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 5. – С. 52-56.